

**“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib
chiqish natijalari haqidagi 2024 yil yakunlari bo‘yicha
HISOBOT**

“O‘zmilliybank” AJning 2024 yilda tasdiqlangan xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligi monitoringi Rejasining 5-bandi ijrosi yuzasidan “O‘zmilliybank” AJda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar monitoring qilindi.

Hisobot davrida:

“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya holatlari haqida habar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali jami **20 (yigirma)ta** murojaat kelib tushgan, shulardan:

- “Call centr” orqali **1 ta** murojaat (Toshkent viloyati - 1 ta);
- Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Boshqarmasining **Ishonch telefoni (78 148-00-89)** orqali **12 ta** (Toshkent shahar - 1 ta , Samarqand - 1 ta, Buxoro - 2 ta, Xorazm – 2 ta, Jizzax - 2 ta, Toshkent viloyati - 1 ta, Surxondaryo - 1 ta, Navoiy - 1 ta, Andijon - 1 ta) murojaat;
- elektron pochta (anticor@nbu.uz) orqali **7 ta** murojaat (Qashqadaryo viloyati - 1 ta, Bleiras sh., Latviya - 1 ta, Toshkent shahar - 4 ta, Buxoro - 1 ta).

Boshqa aloqa kanallari orqali murojaatlar kelib tushmagan.

Kelib tushgan murojaatni ko‘rib chiqish natijasida ularda keltirilgan vajlar korrupsion holatlarga **taalluqli emasligi** sababli Bankning tegishli tuzilmalariga yuborildi, murojaatchilarga tegishli javob xatlari yuborildi.

Bank manfaatlariga zarar yetkazgan holda xodimlar o‘z lavozim vazifalaridan foydalanib tanish-bilishchilik, o‘zlarining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar, kreditlar berish holatlari aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida barcha bank xodimlari ogohlantirilib kelinmoqda va kreditlash jarayonlarida qarz oluvchi bilan aloqador shaxslar (mahalliychilik, do‘stlari va ularning yaqin qarindoshlari) haqidagi ma’lumotlarning mavjudligi, garovining xaqqoniy baholanishi, kredit monitoringini qat’iy nizom talablariga asosan amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

**Axborot va bank xavfsizligi departamenti
Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish
boshqarmasi**